

MUSIQIY TA'LIM

yo'nalishiga topshirgan abituriyentlar diqqatiga

Hurmatli abituriyent!

1. Siz 2021-2022 o'quv yilida Andijon davlat universitetining Pedagogika institutiga 5111100-Musiqiy ta'lif bakalavriat ta'lif yo'nalishiga hujjat topshirdingiz, endi kasbiy (ijodiy) imtihonda cholg'u ijrochiligi va xonandalik mahorati, musiqa nazariyasi va solfedgio fanlaridan o'z bilimlaringizni va ijodiy mahoratingizni namoyon etasiz. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari, qaysi guruhsda ekanligingizni va qaysi kuni imtihonga kelishingiz haqidagi ma'lumotlarni universitetimizning <http://adu.uz> saytidan olishingiz mumkin.

2. Siz o'zingiz bilan pandemiya holatini inobatga olgan holda, xavfsizligingizni ta'minlash maqsadida himoya vositasi – tibbiy niqob bilan kelishingiz so'raladi. Abituriyentlar o'zlari bilan shaxsini tasdiqlovchi pasporti va abituriyent ruxsatnomasi bilan kelishlari shart.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi musiqiy cholg'ular bilan ta'minlash majburiyatini olmaydi. Abituriyentlar ijro etadigan musiqa cholg'usini o'zi bilan birga olib keladi va sozlagan holda ijro etadilar. Kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonida konsertmeyster jo'rligidan, fonogrammadan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Abituriyentga har bir asar ijrosiga 2-3 daqiqa, 3 ta asarni ijro etish uchun uzog'i bilan 6-8 daqiqa vaqt beriladi. Og'zaki savol-javoblar uchun 4-5 daqiqa vaqt ajratiladi.

4. **HURMATLI OTA-ONALAR** imtihonlarga farzandingiz bilan kelmasligingizni iltimos qilamiz. Bu birinchi navbatda pandemiya sharoitida o'zingizning va boshqalarning salomatligi uchun kerak. Shu munosabat bilan ota-onalarga maxsus joylar va boshqa sharoitlar bu yil yaratilmagan. Siz farzandlaringizni kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonini to'g'ridan - to'g'ri <http://adu.uz> sayti orqali kuzatib borishingiz mumkin. Uyda qoling va karantin qoidalariga amal qiling.